

## Shaxmat yoxud aqllar jangida

2020-yil 2-dekabr kuni "B" o'quv binosining 112-o'quv xonasida 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 -yilligi munosabati hamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni ikkinchi tashabbusi aynan yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti 1-bosqich talaba-yoshlari o'rtasida "SPORT - SOG'LIQ GAROVI" shiori ostida sportning "Shaxmat" turi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Tadbirda fakultet dekani B.B.Hasanov va yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari A.I.Azimov va boshqa dekan o'rinbosarlari hamda 1-bosqich talaba-yoshlaridan 48 nafari ishtirok etishdi, shundan 1-o'rinni 106-guruh talabasi Hazratov Ruslan, 2-o'rinni 108-guruh talabasi Karimboev Xusin va 3-o'rinni 102-guruh talabasi Xolmamtoev Mexroj egalladi.



TIQXMMI matbuot xizmati